



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-46-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi huzurida Yoshlar maslahat guruhini tashkil qilish to‘g‘risida

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlarning ijtimoiy siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, norma ijodkorligi jarayonida, xususan, yoshlar masalalariga doir qaror loyihibalarini ishlab chiqish hamda muhokama qilishda faol ishtirok etish, yoshlarga doir masalalar yuzasidan takliflar ishlab chiqish, bu borada tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlariga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 26-fevraldagagi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari huzurida yoshlar maslahat guruhini tashkil qilish to‘g‘risida”gi KQ-102-V-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, sakkizinch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 26-fevraldagagi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari huzurida Yoshlar maslahat guruhini tashkil qilish to‘g‘risida”gi KQ-102-V-sonli qaror ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Yoshlar maslahat guruhi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga;

xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Yoshlar maslahat guruhi tarkibi 2-ilovaga;

yoshlar maslahat guruhi a’zolarini xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga “ustoz-shogird” an’anasi asosida biriktirish jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashiga:

xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari bilan Yoshlar maslahat guruhining hamkorligini ta’minlash hamda ularni yoshlar masalalariga oid muhokamalar va nazorat-tahlil tadbirlariga jalb etib borsin.

4. Quyidagilar Yoshlar maslahat guruhi faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning bevosita ishtirokini ta’minlash;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qonunchilikdagi islohotlar samaradorligini "tengdosh-tengdoshga" tamoyili asosida yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish va joylarda qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish;

xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyalarining yoshlar masalalariga oid muhokamalari va nazorat-tahlil tadbirlarida ishtirok etish;

hududlarda yoshlar muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga doir takliflar ishlab chiqish;

yoshlarda huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda ularning siyosiy bilim va dunyo qarashini shakllantirishga ko‘maklashish;

yoshlar parlamenti bilan hamkorlikda yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ularning manfaatlariga xizmat qiladigan tadbirlarni tashkil qilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari (O.Shirinov), yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov) Yoshlar maslahat guruhi samarali faoliyat olib borishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimi o‘rinbosari (O.Shirinov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 28-martdagি
VII-8-46-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi huzuridagi
Yoshlar maslahat guruhi to‘g‘risida
NIZOM**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi huzuridagi Yoshlar maslahat guruhining (keyingi o‘rinlarda - Yoshlar maslahat guruhi) asosiy maqsad va vazifalarini, Yoshlar maslahat guruhi a’zolarining huquq va majburiyatlarini, uni shakllantirish va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Yoshlar maslahat guruhi xalq deputatlari tuman Kengashi (keyingi o‘rinlarda-tuman Kengashi) qarori bilan tashkil etiladigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘limgan hamda faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan maslahat organi hisoblanadi.

3. Yoshlar maslahat guruhi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Senat Kengashining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, tegishli tuman Kengashi qarorlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Yoshlar maslahat guruhi tuman Kengashining vakolat muddatiga tuziladi, vakolat muddati tugagach yangi tarkibi shakllangunga qadar o‘z faoliyatini davom ettiradi.

**II-bob. Yoshlar maslahat guruhining
asosiy maqsadi va vazifalari**

5. Yoshlar maslahat guruhining asosiy maqsadi - yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, ulaming ijtimoiy-siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlashda, norma ijodkorligi jarayonida, xususan, yoshlar masalalariga doir qaror loyihibarini ishlab chiqish va muhokama qilishda faol ishtirok etish, yoshlarga doir masalalar yuzasidan takliflar ishlab chiqish, bu borada tuman Kengashi deputatlariga ko‘maklashishdan iborat.

6. Yoshlar maslahat guruhining vazifalari quyidagilardan iborat:
yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish doirasida hududdagi yoshlar muammolarini aniqlaydi va ularni bartaraf etishga doir takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

qonun hujjatlarini o‘rganadi, tahlil qiladi va takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

hududiy dasturlarni ishlab chiqish jarayonida yoshlar manfaatlaridan kelib chiqqan holda takliflar tayyorlaydi;

qabul qilingan qonun va qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari, “yo‘l xaritalari” hamda boshqa hujjatlardagi yoshlarga oid vazifalarni tahlil qiladi, zarur hollarda, tegishli tavsiyalar ishlab chiqadi;

hududda yoshlar masalasiga oid chora-tadbirlaming ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazorati olib borilishida ishtirok etadi;

yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun tashabbuskor yoshlarni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

tuman Kengashining doimiy komissiyalari bilan birgalikda yoshlarga doir masalalar bo‘yicha o‘rganish ishlari amalga oshirilishida ishtirok etadi, qaror loyihalari ishlab chiqilishidagi muhokama jarayonlarida qatnashadi;

tuman Kengashining doimiy komissiyalari yig‘ilishlarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining yoshlar masalalariga oid hisobotlari (axborotlari)ni eshitish va muhokama qilish jarayonida ishtirok etadi;

tuman Kengashi doimiy komissiyalari bilan hamkorlikda yoshlar o‘rtasida ekologiyani asrash va atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga qaratilgan aksiyalar o‘tkazadi;

qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyatini hamda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini keng targ‘ib qiladi, yoshlar o‘rtasida turli ko‘rik tanlovlар, madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlarini tashkil etishga ko‘maklashadi;

tuman Kengashi deputatlarining, senatorlarning yoshlar bilan uchrashuvlari tashkil etilishiga ko‘maklashadi.

III-bob. Yoshlar maslahat guruhi a’zolarining huquq va majburiyatları

7. Yoshlar maslahat guruhi a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

tuman Kengashi, uning doimiy komissiyalaridan o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash va olish;

tuman Kengashi, uning doimiy komissiyalari tomonidan tashkil etiladigan majlislar va boshqa tadbirlar to‘g‘risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda belgilangan tartibga qat’iy rioya etgan holda ishtirok etish;

tuman Kengashi, uning doimiy komissiyalari ishchi guruhlari tarkibida davlat organlari va boshqa tashkilotlarga borish;

tuman Kengashi doimiy komissiyalariga Yoshlar maslahat guruhi zimmasiga yuklangan vazifalar yuzasidan takliflar kiritish;

tuman Kengashi doimiy komissiyalarining yoshlar masalasiga oid majlislarida ishtirok etish va ularda ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan fikr bildirish;

yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida hududdagi yoshlar orasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlash va ulaming yechimlariga doir takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish hamda o‘z takliflarini tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyasiga kiritish.

Yoshlar maslahat guruhi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boishi mumkin.

8. Yoshlar maslahat guruhi a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:
qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;
tuman Kengashi faoliyati bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarida belgilangan
cheklovlarga amal qilish;
tuman Kengashi yoki boshqa davlat organlarining o'z vakolatlari doirasida
amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmaslik;
tuman Kengashi, uning doimiy komissiyalari va kotibiyati faoliyat ko'rsatishi
uchun to'sqinlik qilmaslik;
fuqarolaming or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy
hayotiga aralashishga yo'l qo'ymaslik;
o'z faoliyati davomida olingen axborotning, agar bunday axborotni tarqatish
qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilish.
Yoshlar maslahat guruhi a'zolarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq
boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

IV-bob. Yoshlar maslahat guruhi tarkibini shakllantirish tartibi

9. Yoshlar maslahat guruhi tarkibi (16-30 yosh) xalq deputatlari viloyatlar,
Toshkent shahar Kengashlarining Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari
bo'yicha doimiy komissiyasi hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy
soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi
(keyingi o'rnlarda - doimiy komissiya) tomonidan gender tenglikni inobatga olgan
holda shakllantiriladi.

10. Mahallalardagi yoshlar yetakchilari, oliy ta'lim muassasalarining
talabalari, o'rtalik maxsus, umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning
o'quvchilari, turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan eng faol va tashabbuskor,
ijobiy natijalarga erishgan yoshlar Yoshlar maslahat guruhining a'zosi bo'lishi
mumkin.

Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi va siyosiy partiyalarning hududiy
bo'linmalari Yoshlar maslahat guruhi a'zoligiga nomzodlarni tavsiya etishlari
mumkin.

11. Yoshlar maslahat guruhi a'zolari soni, qoida tariqasida, tegishli tuman
Kengashi deputatlari sonining 50 foizidan oshmasligi lozim.

12. Tuman Kengashi deputatlari bir vaqtning o'zida Yoshlar maslahat
guruhining a'zosi bo'lishi mumkin emas.

13. Quyidagi hollarda Yoshlar maslahat guruhining a'zolari uning tarkibidan
chiqarilishi mumkin:

Yoshlar maslahat guruhi tarkibidan chiqish to'g'risida ariza berilganda;
Yoshlar maslahat guruhining yig'ilishlarida muntazam ravishda sababsiz
ishtirok etmaganda;
mazkur Nizom talablarini bir necha bor buzganda;
tuman Kengashining doimiy komissiyasi topshiriqlarini bajarmaganda;
Yoshlar ishlari agentligi va siyosiy partiyalar hududiy bo'linmalari (o'zлari
taqdim qilgan nomzodlar bo'yicha) hamda tuman Kengashi doimiy komissiyasining
tegishli taqdimnomasiga ko'ra;

chet elga ko‘chib ketganda yoki boshqa davlat fuqaroligini olganda; ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda; shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan deb topilganda.

Yoshlar maslahat guruhi a’zolarini uning tarkibidan chiqarish tuman Kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

14. Yoshlar maslahat guruhi a’zolari haqidagi ma’lumotlar tuman Kengashining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi mumkin.

15. Yoshlar maslahat guruhi rahbari va kotibi uning birinchi tashkiliy yig‘ilishida doimiy komissiya tavsiyasiga ko‘ra a’zolar tomonidan ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

V-bob. Yoshlar maslahat guruhi faoliyatini tashkil etish tartibi

16. Yoshlar maslahat guruhi faoliyatining asosiy masalalari uning yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi. Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishi, qoida tariqasida, har chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi.

Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishining kun tartibi loyihasi Yoshlar maslahat guruhi kotibi tomonidan Yoshlar maslahat guruhi raisi va a’zolarining takliflari asosida shakllantiriladi.

17. Yoshlar maslahat guruhi a’zolari uning yig‘ilishi o‘tkazilishidan kamida 3 kun avval bu haqda xabardor qilinadi. Xabarnomada yig‘ilish o‘tkaziladigan vaqt va joy, shuningdek, kun tartibi loyihasi ko‘rsatiladi.

18. Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishini uning rahbari olib boradi.

19. Yoshlar maslahat guruhining yig‘ilishlarida tuman Kengashi deputatlari va kotibiyat xodimlari ishtirok etishi mumkin.

20. Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda videokonferensaloqa shaklida ham o‘tkazilishi mumkin.

21. Yoshlar maslahat guruhi tadbirlari ochiqlik va oshkorlik asosida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

22. Yoshlar maslahat guruhining yig‘ilishi, agar unda Yoshlar maslahat guruhi a’zolarining kamida yarmi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatlgi hisoblanadi.

23. Yoshlar maslahat guruhining qarori yig‘ilishda ishtirok etayotgan Yoshlar maslahat guruhi a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

24. Yoshlar maslahat guruhining yig‘ilishida qabul qilingan qaror bayonnomasi shaklida rasmiylashtiriladi. Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishi bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, yig‘ilishga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda tuman Kengashi doimiy komissiyasiga, Yoshlar maslahat guruhi a’zolariga yuboriladi.

25. Yoshlar maslahat guruhi tomonidan qabul qilingan hujjatlar tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘ladi.

26. Yoshlar maslahat guruhi a’zolari tuman Kengashi deputatlariga “ustoz-shogird” tizimi asosida biriktiriladi.

27. Yoshlar maslahat guruhi faoliyatiga tuman Kengashi kotibiyati va Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘linmasi tomonidan tashkiliy hamda amaliy-uslubiy jihatdan yordam ko‘rsatiladi.

VI-bob. Yoshlar maslahat guruhi rahbari va uning kotibi vazifalari

28. Yoshlar maslahat guruhi rahbari o‘z vazifalarini bajarishi davrida doimiy ish faoliyatidan ajratilmagan holda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Yoshlar maslahat guruhi faoliyatini tashkil qiladi va unga umumiy rahbarlik qiladi;

o‘z vakolatiga ko‘ra yoshlarga oid masalalar bo‘yicha ko‘rib chiqilishi uchun tuman Kengashiga takliflar kiritadi;

Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishlarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishlarida raislik qiladi;

Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

Yoshlar maslahat guruhi a’zolari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Yoshlar maslahat guruhi faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qonunchilikka asosan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

29. Yoshlar maslahat guruhi kotibi:

Yoshlar maslahat guruhining faoliyatini tashkiliy va texnik jihatdan ta’minlash masalalarini hal etadi;

Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishiga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlaydi, yig‘ilish o‘tkazilishini tashkil etadi;

Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishi o‘tkaziladigan vaqt, joy va taklif etiladigan shaxslar ro‘yxatini, yig‘ilish kun tartibi loyihasini Yoshlar maslahat guruhi rahbari bilan kelishadi;

Yoshlar maslahat guruhi a’zolarini va taklif etilgan shaxslarni yig‘ilish o‘tkaziladigan vaqt, joy va kun tartibi loyihasi haqida xabardor qiladi;

Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishi bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning tuman Kengashi doimiy komissiyasi hamda Yoshlar maslahat guruhi a’zolariga jo‘natilishini ta’minlaydi.

VII-bob. Yoshlar maslahat guruhi a’zolarini rag‘batlantirish

30. Yoshlar maslahat guruhi yig‘ilishlarida doimiy ravishda ishtirok etib, muhokama jarayonlarida o‘z takliflari bilan faol qatnashgan, tahliliy materiallar ishlab chiqish, nazorat-tahlil tadbirlarini o‘tkazishga ko‘maklashish va ishtirok etish, qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishda jonbozlik ko‘rsatgan Yoshlar maslahat guruhi a’zolari rag‘batlantirilishi mumkin.

31. Rag‘batlantirish tuman Kengashi raisi, tuman Kengashi doimiy komissiyasi tashabbusi bilan tashakkurnoma e’lon qilish, soha bo‘yicha tegishli davlat mukofotlariga tavsiya qilish tarzida, shuningdek qonunchilik bilan

taqiqlanmagan boshqa ko‘rinishda amalga oshiriladi.

VIII-bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Yoshlar maslahat guruhining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash mahalliy ijro etuvchi hokimiyat tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Yoshlar maslahat guruhi faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirib borish tuman Kengashi doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatiladi.

34. Ushbu Nizomga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish yoki Yoshlar maslahat guruhi faoliyatini to‘xtatib turish yoxud tugatish tuman Kengashi qarori bilan amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
 2025-yil 28-martdagি
 VII-8-46-7-96-K/25 -son qaroriga
 2-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi huzuridagi
 Yoshlar maslahat guruhi
 TARKIBI**

Nº	F.I.Sh, tug‘ilgan yili va joyi, millati	Foto	Ma’lumoti va mutaxassisligi	O‘qish (ish) joyi
1.	Murodov Xasan Sherali o‘g‘li, 1999 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2022 yil, Samarqand davlat universiteti, Kadrlar menejmenti	Kattaqo‘rg‘on tumani “Do‘stlik” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi, Yoshlar maslahat guruhi rahbari
2	Kamariddinov Abror Oltinboy o‘g‘li 1997 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2021 yil, Navoiy davlat pedagogika instituti, jismoniy madaniyat	Kattaqo‘rg‘on tumani “Mullako‘rpa” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi, Yoshlar maslahat guruhi rahbari o‘rinbosari
3	Aktamov Maxmudjon Anvar o‘g‘li 1997 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2020 yil. Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti Geodeziya kartografiya va kadastr (funksiyalari bo‘yicha)	Kattaqo‘rg‘on tumani “Yovi” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi, Yoshlar maslahat guruhi kotibi

№	F.I.Sh, tug‘ilgan yili va joyi, millati	Foto	Ma’lumoti va mutaxassisligi	O‘qish (ish) joyi
4	Toshpulatov Ilxomjon Sag‘dullo o‘g‘li 2000 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2019 yil, Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti	Kattaqo‘rg‘on tumani “Yangiobod” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi Yoshlar maslahat guruhi a’zosi
5	Shukurov Olim Komil o‘g‘li, 1999 yil. Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2019 yil Samarqand davlat universiteti “Psixologiya va ijtimoiy fanlar” fakulteti	Kattaqo‘rg‘on tumani “Balandchordara” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi Yoshlar maslahat guruhi a’zosi
6	Salimov Shoxboz Olim o‘g‘li 1996 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2020 yil, Guliston davlat universiteti, Kasbiy-ta’lim: Agronomiya	Kattaqo‘rg‘on tumani “Omonkalxat” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi Yoshlar maslahat guruhi a’zosi
7	Zarifov Sardor Ibodillo o‘g‘li, 2000 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Tugallanmagan oliy, Toshkent amaliy fanlar instituti “Pedagokika va psexologiya”	Kattaqo‘rg‘on tumani “Qo‘shqo‘ton” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi Yoshlar maslahat guruhi a’zosi

Nº	F.I.Sh, tug‘ilgan yili va joyi, millati	Foto	Ma’lumoti va mutaxassisligi	O‘qish (ish) joyi
8	Bustonov Islomjon Ibroxim o‘g‘li 1995 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2019 yil. Samarqand davlat pedagogika universiteti, milliy g‘oya, ma’naviyat asosları va huquq ta’limi	Kattaqo‘rg‘on tumani “Burgansoy” mahalla fuqarolari yig‘ini yoshlar yetakchisi Yoshlar maslahat guruhi a’zosi
9	Ashurov Nurbek Shuxrat o‘g‘li 1999-yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2023-yil. O‘zbekiston Davlat Konservatoriysi, Cholg‘u ijrochiligi xalq cholq‘ulari (Nay)	Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi madaniyat bo‘limiga qarashli 27-son Sado madaniyat markazi to‘garak raxbari Yoshlar maslahat guruhi a’zosi
10	Isayev Ulug‘bek Alisher o‘g‘li, 1997-yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek		Oliy, 2021-yil. O‘zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sport Universiteti	Kattaqo‘rg‘on shahar Sport maksiabi O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari Yoshlar maslahat guruhi a’zosi
11	Toshpulatov Bilol Botir o‘g‘li, 1998 yil, Kattaqo‘rg‘on tumani O‘zbek		Tugallanmagan oliy, Shimkent davlat universiteti, Iqtisod	Tadbirkor Yoshlar maslahat guruhi a’zosi

Nº	F.I.Sh, tug‘ilgan yili va joyi, millati	Foto	Ma’lumoti va mutaxassisligi	O‘qish (ish) joyi
12	<p>Ozodov Kamollidin Nurali o‘g‘li 2007-yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, O‘zbek</p>		<p>O‘rta Kattaqo‘rg‘on tuman 15-sonli maktab</p>	<p>Kattaqo‘rg‘on tuman 15-sonli maktab 11-sinf o‘quvchisi Yoshlar maslahat guruh a’zosi</p>

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 28-martdagি
VII-8-46-7-96-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Yoshlar maslahat guruhi a’zolarini xalq deputatlari tuman Kengashi
deputatlariga “ustoz-shogird” an’anasi asosida biriktirish
JADVALI**

T/r	Saylov okrugining tartib raqami va nomi	Biriktirilgan deputat	Yoshlar guruhi a’zolari
1.	1-Omonboy	Niyazova Maryam Kadirovna	Toshpulatov Bilol Botir o‘g‘li
2.	2-Katta-arab	Xudayberdiyev Alisher Aktamovich	
3.	3-Omonkalxat	Xusanov Ubaydullo Shokirovich	Salimov Shoxboz Olim o‘g‘li
4.	6- Mullatog‘ay	Mardanov Ibodullo Xushniyozovich	
5.	4-Qoradaryo	Djo‘rayev Ro‘zimurod Bozorovich	Ashurov Nurbek Shuxrat o‘g‘li
6.	10-Yodgorxo‘ja	Ubaydullayev Doston Ergash o‘g‘li	
7.	5-Polvontepa	Qodirova Marxabo Eshpulatovna	Isayev Ulug‘bek Alisher o‘g‘li
8.	17-Andoq	Abduraxmonov Jasur Bekpulatovich	
9.	7-Kadan	Baxtiyorov Sodiq Sobir o‘g‘li	Ozodov Kamollidin Nurali o‘g‘li
10.	20- Yangiyo‘rg‘oncha	Suyunov Elbek Norbekovich	
11.	8-Chag‘atoy	Razzoqov Hotam Anvaryovich	Bustonov Islomjon Ibroxim o‘g‘li
12.	9-Tarnov	G‘ulomov Rustam Toshpo‘lotovich	
13.	11-Ulug‘bek	Irgashev Abduvali Aktamovich	Murodov Xasan Sherali o‘g‘li
14.	12-Madaniyat	Barakayeva Mavluda Damirovna	
15.	13- Kichikmundiyor	Xolova Maksuda Asatovna	Kamariddinov Abror Oltinboy o‘g‘li

T/r	Saylov okrugining tartib raqami va nomi	Biriktirilgan deputat	Yoshlar guruhi a'zolari
16.	14-Tavaron	Tilovov Saydali Akram o'g'li	
17.	21-Suv hovuzi	Achilov Kamol Rashidovich	Zarifov Sardor Ibodillo o'g'li
18.	16-Moybuloq	Nigmatov Xusnidin Rashidovich	
19.	18-Vayrot	Teshayev Muhiddin Xoliqulovich	Aktamov Maxmudjon Anvar o'g'li
20.	24-Kattaming	Sadriddinov Aziz Aktamovich	
21.	19-Qo'shtepa	Jo'rayev Kamoliddin Boymurodovich	Toshpulatov Ilxomjon Sag'dullo o'g'li
22.	25-Mo'minxo'ja	Rabbimov Dilshod Raxmonovich	
23.	23-Mullakichkina	Mirzaxonova Dilorom Bakirovna	Shukurov Olim Komil o'g'li
24.	22-Kattako'rpa	Raximov Ergash Xoshimovich	